O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

# YOSHLAR OVOZI

Молодежь Узбекистана

№ 35 (16441)
2021-YIL
29-SENTABR,
CHORSHANBA

WWW.YOSHLAROVOZI.UZ YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU @YOSHLAROVOZIUZ @YOSHLAROVOZI

IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, ADABIY-BADIIY GAZETA

FORUM

## "YOSH SAYLOVCHI"

### targ'ibot aksiyasi davom etmoqda


















***Yurtimiz bo'ylab "Yosh saylovchi — 2021" forumi o'tkazilmoqda. Yoshlarning saylov haqidagi bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan forum doirasida ko'plab aksiyalar ham tashkil etilyapti. Xususan, Jizzax viloyatining Zomin tumanida ham forum start oldi.***

Peshag'or qishlog'i hududida joylashgan 20 ga yaqin qishloq yoshlarining 100 nafariga 50 sotixdan yer ajratilgan. Yoshlar ajratilgan yer maydoniga makkajo'xori ekish orqali, 20 million so'mdan ortiq daromat olish niyatida.

Aksiya doirasida ana shunday yoshlar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Jizzax yosh saylovchilariga saylov jarayoni haqida muntazam ma'lumot berib boruvchi yoshsaylovchi.uz elektron platformasi haqida ma'lumotlar berildi.

Joriy yil 24-oktabr kuni bo'lib o'tadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida Jizzax viloyati bo'yicha 22 ming 705 nafar yosh yigit-qizlar ilk marotaba ovoz berishda qatnashadi.

Yosh saylovchilarni birlashtirgan forum Jizzax shahrining "O'rda" ekologik bog'ida yuqori saviyada davom etdi. Tadbir qatnashchilari aksiya loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Davomi 2-sahifada.

## KARTON TOM, NURAGAN DEVOR, PARDA BILAN AJRATILGAN XONALAR...

### yoxud uzoq yillar boshpanasiz qiynalgan oila qismati xususida

IJTIMOIY HIMOYA

***Ijtimoiy himoya mamlakatimizda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri. Keyingi yillarda bu borada mutlaqo yangi tizim ishlab chiqildi.***

Chunonchi, bugun hududlarda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalarga yordam berish maqsadida viloyat, tuman, shahar hamda mahallalar kesimida "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" shakllantirilib, shu asosda ish tashkil etilmoqda.

Bu ro'yxatlardan o'rin olgan fuqarolar moddiy-ma'naviy, ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlanib, kasb-hunar o'rganish ishtiyoqidagi yoxud ishsiz yoshlar va xotin-qizlarga amaliy yordam ko'rsatilayotir.

Namangan shahri Gulbog' mahallasida istiqomat qiluvchi Mohira Nurmirzayeva yordamga muhtoj insonlardan biri edi.

Uning oilasi uzoq yillar davomida boshpanasiz qiynalardi. Shu bois Namangan shahar hokimligining sayyor qabulida ishtirok etib, o'z muammosini yozma bayon qiladi.

Davomi 3-sahifada.



JARAYON

# YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI MUSTAHKAMLANMOQDA

***Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda mamlakatimiz hayotining turli jabhalariga oid bir qator qonun loyihalari deputatlar hamda vazirlik va idoralar vakillari tomonidan qizg'in muhokama qilindi.***

Majlisda "Intellektual mulk obyektlari to'g'risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi qizg'in muhokamalarga sabab bo'ldi.

Qonunchilikda intellektual mulk obyektlaridan noqonuniy foydalanganlik, nomulkiy huquqlarga daxl qilganlik uchun javobgarlik qat'iylashtirilmagan, ma'muriy va jinoiy qonunchilikda umumiy uyg'unlik yo'q. Shu sohasi o'sishiga katta yo'l ochadi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi.

Majlisda ikkinchi o'qishda muhokama qilingan "Yoshlar bilan ishlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatining huquqiy asoslarini qonun hujjatlarida mustahkamlashni nazarda tutadi.



bois mavjud qonunchilikni jahon tajribasi va xalqaro huquq normalariga muvofiqlashtirish, ayniqsa, iqtisodiyotni innovatsiyalashtirish intellektual mulk muhofazasini mustahkamlashni taqozo etadi.

– Taklif etilayotgan qonun loyihasida intellektual mulk obyektlariga oid qonunbuzilish holatlarini sodir etganlik uchun yuridik shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan moliyaviy sanksiyalar va ularning qo'llanilish mexanizmi, tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisining faqat tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs nomiga ro'yxatdan o'tkazilishiga nisbatan qonunchilikdagi mavjud cheklovlar bekor qilinmoqda, – deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Botir Mardayev. – Qonun loyihasiga Intellektual mulk sohasidagi ayrim huquq buzilishi holatlari, xususan, ixtiro, foydali model va sanoat namunasiga bo'lgan huquqlarni buzish hamda o'zganing tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi, tovar kelib chiqqan joy nomi yoki firma nomidan qonunga xilof ravishda foydalanganlik uchun tegishli yuridik shaxsga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravaridan 200 baravarigacha miqdorda moliyaviy sanksiya qo'llanilishi to'g'risidagi norma kiritilmoqda.

Deputatlarning fikricha, mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi yuridik shaxslarning korporativ javobgarligi bo'yicha normalarning kiritilishi hamda intellektual mulk

Loyihada amaldagi 5 ta qonunga qo'shimchalar kiritish orqali Agentlikning tegishli sohalar bo'yicha vazifa va vakolatlarini belgilash ko'zda tutilgan.

– Mazkur qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash bo'yicha qizg'in ish olib borildi, – deydi Qonunchilik palatasi deputati Umida Rahmonova. – Bunda Agentlik faoliyati bilan bog'liq qonunchilik tahlil qilinib, siyosiy partiyalar fraksiyalari, qo'mitalar va deputatlarning takliflari, mutaxassis va ekspertlarning tavsiyalari o'rganildi. Olib borilgan ishlar natijasida loyiha amaldagi qonunchilikka muvofiqlashtirilib, kelib tushgan takliflar asosida 30 dan ortiq loyihaga mazmun va tahrir jihatidan tuzatishlar kiritildi. Mazkur hujjatning qabul qilinishi yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda Yoshlar ishlari agentligi faoliyatining qonuniy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Qizg'in muhokamalardan so'ng, bildirilgan barcha takliflar inobatga olinib, qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda ham qabul qilindi.

"Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida"gi qonun loyihasini ikkinchi o'qishda moddama-modda ko'rish davomida deputatlar qizg'in bahs-munozaraga kirishdi. Chunki hayotimizda yer va yer maydonida joylashgan mol-mulkni xususiylashtirish, ijaraga berish, xorijiy investorlarga ijaraga berish kabi munosabatlarga ko'p duch kelamiz. Bu sohadagi qonuniy asoslarni mustahkam, puxta va pishiq qilish turli kelishmovchilik, tushunmovchiliklarning oldini oladi.

Ta'kidlanganidek, qonun loyihasiga yerni xususiylashtirish bo'yicha arizalarni topshirish va ko'rib chiqish tartibini soddalashtirishga qaratilgan yangi normalar kiritilyapti. Ya'ni unda inson omili ta'sir qilmaydigan tarzda arizalarni topshirish va ko'rib chiqish bo'yicha avtomatlashtirilgan tizim joriy etilishi belgilanmoqda. Bundan tashqari, qonun loyihasiga yakka tartibdagi mulkdorning ushbu yer uchastkalaridagi shaxsiy mulk tushunchasi o'z mantig'ini yo'qotayotganligi sababli, ko'p xonadonli uylar joylashgan va shaharsozlik normalari talablariga muvofiq ularga tutash yer uchastkalari hamda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini, ijtimoiy sheriklik to'g'risidagi bitimlar va shartnomalarni amalga oshirish, shuningdek, davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yuridik shaxslarga berilgan yer uchastkalari degan yangi normalar o'z aksini topdi.

Xalq vakillarining ta'kidlashicha, qonun loyihasi bilan xususiylashtirish jarayoniga to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etishga, yer uchastkalar mulk shaklida rivojlanishiga, ko'chmas mulk bozorining jadal o'sishiga, aholining kreditga layoqatliligi va mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga erishiladi.

Qizg'in muhokama va munozaralardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi.

Majlisda "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, qonun loyihasiga kiritilayotgan yangi normalar fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari bilan munosabatga kirishishda aniq tartib-taomillarni belgilashga, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini davlat organlari xodimlarining huquqqa xilof harakatlaridan himoya qilishga, ma'muriy tartib-taomillarning yagona va shaffof mexanizmi yaratilishiga, ushbu jarayonlarda korrupsiyaviy holatlar yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan.

Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi ma'muriy tartib-taomillarni amalga oshirishda huquqiy barqarorlikni ta'minlashga, fuqarolar va tadbirkorlarning davlat organlari tomonidan qabul qilinadigan ma'muriy hujjatlarga hurmat va ishonchini kuchaytirishga hamda mamlakatimizning investitsiyaviy muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

Qizg'in muhokamalardan so'ng, qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Parlament quyi palatasi majlisida yana bir qator qonun loyihalari ko'rib chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

**Muhtarama KOMILOVA,**
**O'zA muxbiri**

24 OKTABR 2021-YIL O'ZBEKISTON PREZIDENTI SAYLOVI



# YOSHLAR O'ZLARI TANLAGAN MUNOSIB NOMZODGA OVOZ BERADI

***Parkent tumanidagi "Yoshlar bog'ida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida "Yoshlarning siyosiy bilimi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish" mavzusida aksiya o'tkazildi.***

Tadbir doirasida barcha tuman-shaharlardan "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yigit-qizlarning o'z mehnatlari mahsuli bo'lgan hunarmandchilik namunalari, ishlab chiqarish va dehqonchilik mahsulotlari yarmarkasi tashkil etildi. Unda viloyatdagi yoshlar tashkilotlarining ko'plab vakillari va faollari, Yoshlar ittifoqining ta'lim muassasalari, korxona-tashkilotlaridagi yetakchilari, "Kelajak liderlari" klubi a'zolari hamda iqtidorli 2 ming nafarga yaqin yoshlar ishtirok etdi.

Joriy yil viloyatda Prezident saylovida yoshlar faolligi o'tgan saylovlardagidan ko'ra yanada salmoqliroq bo'lishi kutilmoqda. Hududda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy bilimlarini oshirish, huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida bo'lib o'tayotgan mazkur tadbirda "O'z kelajagimni o'zim belgilayman, siz-chi?" shiori ostida insholar tanlovi, "Munozara" intellektual bellashuvi, yutuqli viktorina, yoshlarning huquqiy savodxonligini aniqlashga qaratilgan "Siz qonunni bilasizmi?" televizion o'yini o'tkazildi.

Shuningdek, "Saylov – 2021: Kelajak xalq tanloviga bog'liq!" mavzusida maqolalar ko'rigi hamda "Men ham saylovda faol ishtirok etaman" tanlovi, "Yangi O'zbekiston saylovlari yoshlar nigohida" ilmiy-amaliy xalqaro konferensiyaning taqdimoti o'tkazildi.

– Mamlakatimizda o'tkaziladigan Prezident saylovida Toshkent viloyati yoshlari ham faol qatnashadi, – deydi Toshkent viloyati "Kelajak liderlari klubi" a'zosi Malika Nazarova. – Bugungi aksiya bunga misoldir. Bu yerda minglab yoshlar yig'ilgan. Ularning ijtimoiy faolligini ko'rib xursand bo'ldik. Xususan, bizning Yangiyo'l shahridagi saylovchilarning 35 foizi yoshlardir. Toshkent viloyati "Kelajak liderlari" klubi a'zosi sifatida shuni aytamanki, mazkur siyosiy jarayonda yangiyo'llik yoshlar ham alohida faollik ko'rsatib, o'zlari tanlagan munosib nomzodga ovoz beradi.

Tadbirda Toshkent viloyati hokimi Davron Hidoyatov ishtirok etib, yoshlar bilan fikr almashdi, ularning rejalari, tashabbus va takliflarini tingladi.

**Abdulaziz MUSAYEV,**
**O'zA muxbiri**

# "YOSH SAYLOVCHI"

## targ'ibot aksiyasi davom etmoqda

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Jumladan, "Munozara" intellektual bellashuvi, "O'z kelajagimni o'zim belgilayman, siz-chi?" shiori ostidagi insholar tanlovida 100 nafarga yaqin ijodkor yoshlar faol qatnashdi. Qolaversa, forum doirasidagi yutuqli viktorina, yoshlarning huquqiy savodxonligini aniqlashga qaratilgan "Siz bilasizmi?" teleo'yini hamda "O'zbekiston uchun — 100 g'oya" loyihalari yoshlarda katta qiziqish uyg'otdi.

— Bugun aksiya doirasidagi yutuqli viktorinada muvaffaqiyatli ishtirok etdim, — deydi Jizzax shahridagi 7-umumta'lim maktabining boshlang'ich tashkilot yetakchisi Dilfuza Ergasheva. — O'nta savoldan sakkiztasiga to'g'ri javob berib, kitoblar jamlanmasini qo'lga kiritdim. Anchadan buyon Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarini o'qish niyatida yurgandim. Nihoyat loyiha orqali ushbu maqsadim amalga oshadigan bo'ldi.

Forum davomida loyihalarda faol qatnashgan va g'oliblikni qo'lga kiritgan yoshlar tadbir tashkilotchilari tomonidan munosib rag'batlantirildi.

Xuddi shunday tadbir Andijon viloyatida ham bo'lib o'tdi. Andijon shahridagi Registon maydonida "O'z kelajagimni o'zim belgilayman, siz-chi?" shiori ostida insholar tanlovi, "Munozara" intellektual bellashuvi, yutuqli viktorina, yoshlarning huquqiy savodxonligini aniqlashga qaratilgan "Siz bilasizmi?" televizion o'yini va "O'zbekiston uchun 100 g'oya" loyihasi o'tkazildi.

**Iqbol PARDAYEVA**



# MATONATLI TADBIRKOR YIGIT

*Vaqt – oqar daryo. U kimlarnidir ummon kabi keng imkoniyatlar sari, yana kimlarnidir botqoqlikka olib ketishi mumkin. Bu yo'llarni tanlash esa vaqtga emas, insonning o'ziga bog'liq. Hamma ham shu bebaho ne'mat qadriga yetavermaydi. Tushunib yetganlar esa vaqtdan unumli foydalanishga, uni behuda sarflamaslikka harakat qiladi.*

Vaqt qadriga yetadigan yoshlarimizdan biri Sirdaryo viloyati Shirin shahrida yashovchi Isroil Tolibovdir. U nogiron bo'lishiga qaramay, ba'zi sog'lom insonlar uddalay olmaydigan ishlarni uddalashga harakat qiladi. Isroil bir necha yil oldin bankdan kredit olib, Shirin shahri markazida muzqaymoq savdosini yo'lga qo'ydi. Shu bilan birga bir necha tengdoshlarini ish bilan ta'minladi. Yosh bo'lishiga qaramay ushbu faoliyati orqali moddiy imkoniyatini ham yaxshilab oldi.

— Muzqaymoq — kishiga quvonch bag'ishlaydigan shirinlik, — deydi yosh tadbirkor Isroil Tolibov. — Uning yanada mazali bo'lishi uchun doim izlanishdamiz. Yangi va mazali turlarini yaratish, tayyorlashga harakat qilyapmiz.

Isroil singlisini ham mustaqil ishlashga o'rgatdi. Ishchanlik va ishga muhabbat qo'yganini anglab, uni ham tadbirkorlikka yetakladi. Natijada singlisi ham kredit olib, tikuvchilik faoliyatini yo'lga qo'ydi.

Isroil bag'rikeng, ko'ngli ochiq yigit. U muzqaymoq biznesi bilan shug'ullanayotgan do'stlari, yoshlardan maslahat va ko'magini ayamaydi. Qahramonimiz faqat tadbirkorlik qilish bilan kifoyalanmay, 4 yildan buyon suv sporti, ya'ni akademik eshkak eshish bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda. Shu sport turi orqali ko'plab mamlakatlarda bo'lib, musobaqalarda yuqori natijalarga erishgan. U 2019-yil sportda qo'lga kiritgan yutuqlari uchun Guliston davlat universitetiga imtiyozli ravishda o'qishga qabul qilingan, hozir uchinchi bosqich talabasi. Yosh tadbirkor o'zining bu natijalarga erishishida ota-onasining o'rni katta ekanini faxr bilan aytadi:

— Dadajonim va onajonim meni har doim qo'llab-quvvatlagan, "Sening qo'lingdan keladi", deb ishonch bildirib, o'z duolari bilan menga hamisha omad tilaydi.

Har bir insonning o'z orzusi va oldiga qo'ygan maqsadi bo'ladi. Isroilning eng oliy maqsadlaridan biri ota-onasini "Haj" safariga olib borish va kelajakda muzqaymoqxonasini kengaytirib, ishsizlarni ish bilan ta'minlab, o'zi kabi yoshlarga ham ma'naviy, ham moddiy yordam berish.

Ayni paytda salqin kunlar yaqinlashayotganini hisobga olgan holda "Bundan keyin nima qilmoqchisiz, ya'ni muzqaymoqni odamlar sotib olmasa nima qilasiz?" degan savol bilam murojaat qilganimizda, undan shunday javobni oldik: "Hechqisi yo'q, men bundan qo'rqmayman, chunki muzqaymoq biznesi bo'lmasa, shirin jo'xori biznesi bor. Qish kunlari issiq va shirin jo'xorilar juda yaxshi ketadi, odamlar talashib-tortishib olib qo'yadi".

Yosh tadbirkor hozirgi kunda muzqaymoqxonasining faoliyati ancha sustlashganini, bunga o'qishi boshlanib, ko'p vaqtini unga sarflayotganini aytdi. Aytish joizki, Isroilning singlisi ham bu yil shartnoma asosida o'qishga kirdi. Suhbatdoshimiz singlisining ham shartnoma pulini o'zining mustaqil topgan pullaridan to'layapti.

— Yoshlar o'rtasida ishsizlik va bekorchi yurish holatlarini ko'p kuzataman. Men o'z biznesimni boshlaganman, ammo qolgan yoshlar-chi? Yana bir ulkan maqsadim kelajakda yoshlarni ish bilan ta'minlab, fast-food mahsulotlari savdosini ham yo'lga qo'ymoqchiman, — deydi u.

Metindek matonati, kuchli irodasi bilan barchaga ibrat bo'lib yashayotgan Isroilga kelajakdagi ezgu ishlarida omadlar tilab qolamiz.

**Surayyo KELDIBEKOVA,**
**O'zJOKU talabasi**

# KARTON TOM, NURAGAN DEVOR, PARDA BILAN AJRATILGAN XONALAR...

## yoxud uzoq yillar boshpanasiz qiynalgan oila qismati xususida

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



Ariza bilan tanishgan shahar hokimi G'afurjon Jamolov murojaatchi Mohira Nurmirzayevaning oilaviy ahvolini o'rganish maqsadida o'rinbosari Dostonbek Abduqahhorov hamrohligida uning mahallasiga boradi.

— Vaziyat bilan tanishib, oila haqiqatan ham juda qiyin sharoitda yashayotganini ko'rdik, — deydi Namangan shahar hokimining o'rinbosari Dostonbek Abduqahhorov. — O'rganishlarimizga ko'ra, bu oilaga bir paytlar mahalla ahli hashar yo'li bilan 1 xonali uy qurib bergan ekan. Ammo uyning tom qismi ham, asosiy devori ham umuman talabga javob bermaydi. Bu yerda qish u yoqda tursin, yozda ham yashab bo'lmaydi. Sodda qilib aytadigan bo'lsak, bu uy yashab bo'lmas ahvolga kelib qolgan. Shu bois, oila uy-joydan qiynalib, vaqtincha qo'shnisi xonadonida yashab kelayotgani aniqlandi.

Hayot tasodif-u sinovlarga to'la. So'rab-surishtiruvlarimizdan ma'lum bo'ldiki, murojaatchi Mohira Nurmirzayeva va uning turmush o'rtog'i birinchi guruh nogironi bo'lib, gapira olmaydi. Turmush o'rtog'i — rassom. Chizgan rasmlari, yasagan dekarativlarini sotib kun kechirar ekan. Ularning bir nafar qizi bor. Qish mavsumida oila boshlig'i o'z yaqinlarinikidan, ayol va qizi onasining uyidan qo'nim topadi. Kunlar isishi bilan mana shu xonadonda birga yashashadi. Uzoq yillardan buyon davom etib kelayotgan bunday turmush tarzi ularni, ayniqsa, qizini juda xafa qilardi.

Eng achinarlisi, o'tgan qish mavsumini o'z uylarida o'tkazishga majbur bo'lgan. Ammo bir qismi shifer va asosan, kartondan yopilgan tom, nurab ketgan devorlar, parda bilan ajratilgan xonalar qishga dosh berolmasligi tabiiy hol. Shu sababdan bu yil shahar hokimligidan yordam so'rashga majbur bo'lgan.

Hokim bu oilaning murojaati va manzilli o'rganishlardan so'ng darhol ularning yashash sharoitini yaxshilash maqsadida yordam berishga kirishdi. Avvalo, homiylik qilish istagini bildirgan saxovatpesha insonlarni ayni shu xonadonga yo'naltirdi. Hokim xayrli ishga bosh-qosh bo'ldi. Hozir bu oila uchun hamma sharoitlarga ega 5 xonali uy qurilmoqda.

— Uyimizning devoriga har bir g'isht qo'yilganda shunchalar sevinamanki, buni so'z bilan tasvirlab bera olmayman, — deydi Hadicha Akromova (arizachining qizi). — Endi o'z uyimiz bo'ladi. Bir paytlar bu orzu edi xolos. Bugun orzularimiz ro'yobga chiqmoqda. Bunga haligacha ishongim kelmaydi. Necha yillik qiyinchiligimiz, uyimiz yo'qligi bois ertangi kunga ishonch ham yo'qolgandi. Hokimlik vakillari aytishiga qaraganda, uyimiz uzog'i ikki-uch haftada qurib bitkazilar ekan. O'sha kunni oilamiz bilan intizor bo'lib kutyapmiz.

Ha, oldimizda qish. Shu bois turarjoyni imkon qadar tezroq bitirib, o'z egalariga topshirish hokimning asosiy maqsadlaridan biri. Bu hali hammasi emas. Shahar hokimi bu oila farzandiga ham alohida g'amxo'rlik ko'rsatmoqda. Ayniqsa, hokimlik qizni otaliqqa olish, kelajakda uning oliy o'quv yurtida ta'lim olishi, ishga joylashtirish masalalarida ham g'amxo'rlik qiladigan bo'ldi. Oila a'zolari ko'rsatilayotgan e'tibordan juda minnatdor.

Bugun nafaqat mahalliy hokimliklar, balki barcha vazirlik va idoralar, sektor mutasaddilari, mahalla faollari aholining ehtiyojmand qatlamlariga ko'mak berish, ularning yashash tarzi, muammolari bilan qiziqib, murojaatlarga tezkorlik bilan javob qaytarish, masalalarga ijobiy yechim topishda faollik ko'rsatib kelyapti.

**Iqbol PARDAYEVA**



24 OKTABR 2021-YIL O'ZBEKISTON PREZIDENTI SAYLOVI

***Saylov jarayonini sotsiologik tadqiq etish "Ijtimoiy fikr" Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Markaz joriy yilning 30-avgust, 10-sentabr kunlari "O'ZBEKISTON: SAYLOVLAR – 2021" mavzusida jamoatchilik fikri telefon so'rovlarining to'rtinchi bosqichini o'tkazdi.***

# PREZIDENT SAYLOVI FUQAROLARNING INTEGRATSIYALASHUV DARAJASINI OSHIRISHGA XIZMAT QILADI

Unda 2021-yil 24-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga bo'ladigan saylov munosabati bilan O'zbekiston fuqarolarining elektoral xulq-atvori xususiyatlari o'rganildi hamda aholining bo'lajak saylovda ishtirok etishga tayyorligi darajasi va siyosiy moyilliklari aniqlandi. Tadqiqotda mamlakatning barcha mintaqalarida yashovchi fuqarolar, shahar va qishloqlar aholisi, erkaklar va ayollar, turli millat va ijtimoiy qatlamlar vakillari, iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorida band bo'lganlar, yoshlar, o'rta va katta yoshdagilar ishtirok etdilar.

O'tkazilayotgan jamoatchilik fikri so'rovlarining natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, yillar davomida O'zbekistonda demokratik saylovlarni o'tkazish borasida katta tajriba to'plandi, fuqarolarning elektoral moyilliklari tizimi bosqichma-bosqich shakllantirilmoqda, so'nggi saylovlar davomida elektoral xulq-atvor modellarining takror hosil qilinishi kuzatilmoqda. Mamlakat fuqarolari elektoral tanlovining o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganish davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Elektoral tadqiqotlar natijalari nafaqat manfaatdor siyosiy kuchlar uchun, balki ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish va amalga oshirishda davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari uchun; saylov qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha ishlovchi qonun chiqaruvchilar uchun; saylovlarni tashkil etish va o'tkazishni tartibga solish maqsadida saylov komissiyalari uchun ham qimmatli axborot-tahliliy resurs hisoblanadi.

Ijtimoiy-siyosiy hayotga va umuman siyosatga bo'lgan qiziqish siyosiy ongni va malakani shakllantirish, muayyan siyosiy afzalliklar va yo'nalishlarni ongli ravishda tanlash hamda bo'lajak Prezident saylovlarida ishtirok etishga zamin yaratuvchi asosiy tavsif hisoblanadi. Telefon so'rovlari natijalarining monitoringi



shuni ko'rsatdiki, oldinda turgan Prezident saylovi fuqarolarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga integratsiyalashuvi darajasini oshirishga xizmat qiladi. "Siz mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini kuzatib borasizmi?" degan savolga aksariyat fuqarolar ijobiy javob berdilar, shulardan 47,9 foiz respondentlar mamlakatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan doimiy ravishda, 40,2 foiz so'ralganlar esa vaqti-vaqti bilan qiziqadi.

Tadqiqot natijalari monitoringining tahlili shundan dalolat berib turibdiki, Prezident saylovini o'tkazish kuni yaqinlashgani sayin, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga qiziqish bildirayotgan fuqarolarning soni ortib bormoqda hamda mamlakatda ushbu sohada sodir bo'layotgan o'zgarishlarni kuzatib bormayotgan respondentlarning foizi kamaymoqda.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, ijtimoiy-siyosiy soha mamlakatning ko'pchilik fuqarolari uchun ahamiyatli hisoblanadi, bu esa o'z navbatida kuchli fuqarolik jamiyatini qurishga yordam beradi, chunonchi siyosatga va mamlakat siyosiy hayotiga qiziqish fuqarolar siyosiy ongining asosiy tavsiflaridan biri hisoblanadi va fuqarolik mustaqilligi hamda tashabbuskorligini, o'z e'tiqodlari, qobiliyatlari hamda o'zining shaxsiy va ijtimoiy foydali manfaatlarini siyosiy xatti-harakatlar yordamida himoya qilishga intilishini shakllantirish uchun asos yaratish imkonini beradi.

Telefon so'rovi 2021-yil – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi yili hisoblanishidan mamlakat aholisining barqaror yuqori xabardorlik darajasini aniqladi. Tadqiqotni o'tkazish vaqtida 91,8 foiz o'zbekistonliklar joriy 2021-yilda Prezident saylovlari bo'lib o'tishidan xabardor edi. Monitoring davlatimiz hayotida juda muhim bo'lgan ushbu ijtimoiy-siyosiy voqea haqida elektoratning xabardorlik darajasi saylov kuni yaqinlashgani sayin mamlakatning barcha mintaqalarida yashovchi fuqarolarning hamma toifalari, erkaklar va ayollar, yoshlar va katta yosh vakillari o'rtasida tobora ortib borayotganligini aniqladi.

So'rov natijalarining tahlili saylovoldi kampaniyasining borishini so'ralganlarning yarmidan sal ko'prog'i (60,5 foiz) kuzatib borishlarini ko'rsatdi. Monitoring saylovni o'tkazish kuni yaqinlashgani sayin saylovga tayyorgarlik, saylovoldi munozaralari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarning dasturlari yoki saylovoldi platformalari haqidagi ma'lumotlarga, shuningdek, bo'lajak saylovga bag'ishlangan chiqishlar, munozaralar, matbuot anjumanlari va intervyularga qiziqish bildirayotgan fuqarolar sonining o'sib borishi tendensiyasi kuzatilayotganini aniqlab berdi.

Telefon so'rovi davomida aniqlanishicha, 71,2 foiz respondentlar uchun saylovoldi kampaniyasining borishi va bo'lajak saylovda ovoz berishga tayyorgarlik haqidagi axborotning eng ommabop manbasi O'zbekiston davlat televideniyasi hisoblanadi. Fuqarolar saylovoldi kampaniyasi haqidagi ma'lumotlarni asosan teledasturlar orqali olishlarini ta'kidladilar. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, ushbu reytingda Internet ikkinchi o'rinda turadi, 46,5 foiz so'rov ishtirokchilari mamlakat Prezidentligiga bo'lajak saylov yangiliklari bilan Internet orqali tanishadilar. 32,8 foiz respondentlar uchun saylovoldi kampaniyasining borishi haqidagi asosiy axborot manbasi mamlakat nodavlat televideniyasi kanallari hisoblanadi.

Telefon so'rovi natijalari tahlili shundan dalolat beradiki, jamoatchilik fikrida saylovoldi jarayonining bevosita ishtirokchilari o'rtasidagi ochiq telemunozaralar Prezidentlikka nomzodlarning siyosiy dasturlari haqida ma'lumot olishning eng jozibali shakli hisoblanadi. Ushbu fikrga telefon so'rovining 46,5 foiz ishtirokchilari qo'shilishdi. 21,7 foiz respondentlar Prezidentlikka nomzodlarning ishonchli vakillari ishtirokidagi tok-shoularga qiziqish bildirmoqdalar. So'rov ishtirokchilari ularga mustaqil ekspertlar, olimlar, tahlilchilarning bo'lajak siyosiy voqea hamda Prezidentlikka nomzodlar va ularning siyosiy ustuvorliklari haqidagi fikrlari, shuningdek, nomzodlarning saylovchilar bilan bevosita uchrashuvlari qiziqarli ekanligini ta'kidladilar.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, jamoatchilik fikrida mamlakat Prezidentligiga bo'lajak saylovning muhimligini va fuqarolarning ovoz berishda shaxsan ishtirok etishi zarurligini anglab yetish ustuvorlik qilmoqda. Ko'pchilik o'zbekistonliklar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi orqali berilgan ovoz berish huquqidan foydalanish va davlatni boshqarish jarayonida ishtirok etish, shuningdek, hokimiyatga bevosita ta'sir ko'rsatish imkoniyatining amalga oshirilishini o'zlari uchun muhim, deb hisoblaydilar.

So'rov ishtirokchilari uchun navbatdagi prezidentlik muddati davomida mamlakatni boshqarishni kimga ishonib topshirishni xohlashlarini shaxsan hal qilish ustuvor hisoblanadi. 87,4 foiz respondentlar shunday hisoblaydilar. Telefon so'rovlari monitoringi shuni ko'rsatdiki, ushbu ko'rsatkich tadqiqotlarning barcha davrlarida barqaror yuqoriligicha qolmoqda.

Demokratik islohotlarning zamonaviy O'zbekistonda, eng avvalo, prezidentlikning samarali faoliyat ko'rsatadigan instituti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning aniq istiqbollari mavjudligi bilan bog'liq siyosiy barqarorlikni mustahkamlash bosqichida partiyalar rolini kuchaytirish bilan bog'liq jarayonlar tobora faolroq namoyon bo'lmoqda, buning natijasida aksariyat partiyalar ijtimoiy bazaga, elektoral va parlamentlik tarixiga ega. Telefon so'rovi natijalarining ko'rsatishicha, mamlakat fuqarolari siyosiy partiyalar bo'lajak prezidentlik saylovlariga o'z nomzodlari timsolida ilgari surayotgan siyosiy dasturlar, maqsad va vazifalar haqida tasavvurga egalar. Ayni vaqtda, so'rov ishtirokchilari tadqiqot davomida nomzodlarning saylovoldi dasturlari bilan to'liq tanishishga hali ulgurmaganliklari, ularning dasturiy maqsad va vazifalari haqida faqat umumiy tasavvurga ega ekanligini ta'kidladilar.

Telefon so'rovi aholining yuqori elektoral faolligini aniqladi, saylash huquqiga ega bo'lgan ko'pchilik o'zbekistonliklar, o'zlarining shaxsan ta'kidlashlaricha, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga bo'lajak saylovda, albatta, ishtirok etadilar. O'zbekistonliklar uchun ovoz berish mamlakat, jamiyat, har bir fuqaro hayotidagi muhim ijtimoiy-siyosiy voqea hisoblanadi, ular mazkur voqeani mamlakatda demokratik, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, tinchlik va barqarorlikni saqlash, jamiyat hayotining barcha sohalarini modernizatsiyalash va liberallashtirish, O'zbekiston xalqlarining farovonligini oshirish jarayonlari bilan bog'laydilar.

**"Ijtimoiy fikr" Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi, O'zA**

НАСТАВНИК



# Спросите у профессора Кудрявцева

**Он с легкостью переходит с русского на узбекский язык и наоборот. И нет разницы, общаться на бытовом уровне или оперировать терминологией. Причем, не видя этого человека, ни за что не определишь его национальность.**

Профессор кафедры теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета Игорь Кудрявцев, кавалер ордена «Дустлик», никогда не забывает о своей языковой школе, где словарный запас пополнялся в живом общении с друзьями. Зааминский паренек с любовью к родному краю, его истории впитал нюансы узбекской речи. Учащийся школы №66 имени Абдуллы Каххара, сын освоителей Голодной степи с нетерпением ждал уроков историка Явдата Нугуманова: так увлекательно было ощущать себя властителем времени, переносясь из эпохи в эпоху, представляя себя на месте Спитамена или Мирзо Улугбека, Ширака или Беруни... Однако при всей любви к предмету хотелось быть юристом.

В те времена даже мысли о юридическом факультете казались несбыточной мечтой, а вот история была той синицей в руках, которую не стоило упускать. Абитуриентство юноши совпало с образованием Джизакской области, и джизакцев в тот год принимали вне конкурса. Так Игорь Кудрявцев стал студентом исторического факультета Ташкентского государственного университета (ныне Национальный университет Узбекистана), где уже с первого курса начинали приобщать к научно-исследовательской работе. Окончив вуз и влившись в его преподавательский коллектив, перспективный выпускник не изменил юношеской мечте. Через двадцать лет он все-таки окончит юридический заочно, а затем защитит диссертацию «Проблемы формирования правовой идеологии в условиях независимости Узбекистана».

За плечами Игоря Владимировича более сорока лет преподавания. Услышав удивленные возгласы студентов: «А вы еще моего дедушку учили», реагирует с улыбкой: «Какой я, оказывается, древний».

Молодой преподаватель Фарход Фазилов отмечает юмор как одно из важных качеств наставника:

– Его шутки помогали нам усваивать серьезный материал, потому что снимали напряжение и усталость. И училось сказанное легче, и запоминалось. Хотелось во всем быть похожим на нашего устоза: иметь такой же аналитический склад ума, так же здорово играть в шахматы, легко находить общий язык с окружающими (а студенческая аудитория разнородная, у каждого свой характер).



Кстати, отличительная черта многого добившихся людей, благодарных за образование и воспитание, – это отношение к наставникам. Когда о них спрашиваешь Игоря Владимировича, следует длинный список: сначала школьные учителя с незабытыми фамилиями, именами и отчествами, затем университетские преподаватели, коллеги, у которых всегда есть чему поучиться... И ведь это «есть чему поучиться» преподносится с такой теплотой и так по-доброму детально, что диву даешься. Многие ли из нас (за исключением профессиональных певцов) помнят своих учителей пения?!

Студенты с благодарностью говорят о том фундаменте правовых знаний, который заложил профессор Кудрявцев. Отношение преподавателя к любимым предметам «Теория государства и права», «История государства и права», мировоззренческим дисциплинам побуждает его аудиторию к самостоятельному мышлению, анализу, способствует формированию грамотных юристов.




– Преподавание теории государства и права, естественно, преследует воспитательные, идеологические, гносеологические цели, – говорит Игорь Владимирович. – Уже с первого курса объясняем студентам, что стать хорошим специалистом для Нового Узбекистана – задача не из легких. Нужно знать не только свои предметы, модули, а свободно ориентироваться в политике, проводимой государством, в современных реформах, понимать, почему задается такой быстрый темп, почему огромное внимание уделяется высшему образованию, в том числе юридическому. Наш университет – ровесник независимости. Недавно отметил 30-летие. Было приятно получить поздравления от выпускников, которые трудятся в более чем 50 странах. Многие приехали на конференцию. Видеть результаты своего труда дорогого стоит.

Наш герой – участник мастер-классов в высших учебных заведениях профильного характера как в Узбекистане, так и за рубежом. Нередко проводит занятия в музеях, особенно в Государственном музее истории Темуридов. Тема «Государственное устройство империи Амира Темура» усваивается здесь гораздо лучше, нежели в обычной аудитории. В музее «Шон-шараф» в Парке Победы лекции сопровождаются особым всплеском эмоций. Процессы образования и воспитания в вузе неразрывно связаны.

Профессор Кудрявцев отмечает, что именно в последние годы студенчество пришло в движение и получило возможность раскрыть заложенный в нем потенциал. Дает оценку системе «устоз – шогирд» – историческому наследию Узбекистана – как имеющей первостепенное значение для вузов. В ТГЮУ она представлена научными школами профессоров. Научная школа Игоря Кудрявцева работает под девизом: «Студент-юрист сегодня, завтра – гарант справедливости и законности». Цель данной структуры – стимулировать у студентов развитие собственного правового мышления и правового сознания. Приобщить к написанию научных и публицистических материалов, готовить аналитические статьи. Обсуждать проводимые в стране реформы с учетом сравнительно-правового анализа. Готовиться к конференциям и олимпиадам разного уровня.

Участвует в международных мероприятиях, подавая пример своим шогирдам. Скажем, получает сертификат участника международного круглого стола «Современные тенденции развития и перспективные направления местного управления и самоуправления» в Полоцком университете, а студент Мирзожамолбек Музафаров становится победителем Всероссийской олимпиады «Время знаний» по дисциплине «Теория государства и права».

Игорю Кудрявцеву выпала честь лично поблагодарить главу государства за высокую оценку преподавательского труда и конкретно за изменения в сфере образования. За кафедру вышел умудренный опытом наставник, который в сравнительно короткой, но весьма эмоциональной речи представил свою гражданскую позицию. Проникновенное слово подтверждало: глубокое понимание процессов развития нашего общества, роль молодежи в строительстве Третьего Ренессанса этот историк, юрист, преподаватель, воспитатель – Устоз доносит до адресата.

**Ольга АЛЕКСАНДРОВА**

ПУТЬ В ПРОФЕССИЮ

# ТРУД НЕЛЕГКИЙ, НО ИНТЕРЕСНЫЙ

*Задайте себе вопрос: «Не будь их, дошли бы до массового читателя шедевры художественной литературы, научные и научно-популярные статьи, смогли бы люди понять друг друга, не зная языка собеседника?»*

*В 1991 году официально утвержден профессиональный праздник – Международный день переводчика, который отмечается 30 сентября.*

*Читая книгу, мы чаще всего не интересуемся, кто перевел ее на наш родной язык. Подчас забываем и автора. У специалиста другой подход – аналитический. Его волнует, насколько профессионально переведено произведение и как избежать ошибок переводчика, если таковые обнаружены.*

*О том, как готовят кадры в Ташкентском государственном университете востоковедения, мы беседуем с завкафедрой переводоведения и международной журналистики доктором философии (PhD) по филологическим наукам Нилуфар ХОДЖАЕВОЙ.*



**– Труд переводчика сложен, ибо недостаточно только лингвистической подготовки – нужно знать культуру того народа, с языка которого придется переводить, проникнуться его духом. Иначе возможны не просто неточности, а даже казусы и ляпы. Как будущих специалистов с первых занятий нацеливают на предстоящую нелегкую работу?**

– В том-то и сложность, что недостаточно одной грамматики и лексики. Кроме того, культура, история, литература, быт, политическое состояние народа составляют основу грамотного подхода к переводу. Проигнорировать национальное своеобразие – значит заведомо обречь себя на неудачу. Есть страны, в которых не один государственный язык. Нельзя сбрасывать со счетов диалекты, сленг, колорит фразеологии. Персонажами могут быть представители разных пластов населения, и это сказывается на речи героев. Иногда в художественных произведениях мы сталкиваемся с орфографическими, орфоэпическими, стилистическими ошибками. Это не технические погрешности. Изначально автор собирался подчеркнуть уровень владения персонажа родным языком.

Вообще, в теории перевода ставится цель безупречного владения богатствами родного языка, чтобы его средствами более точно передавать смысл написанного или сказанного на чужом.

**– Переводчиков со скольких языков готовит вуз?**

– Специфика университета – восточные языки. Арабский, индийский, китайский, корейский, японский, персидский, турецкий, пушту, дари, урду, индонезийский и другие. Студенты обучаются как собственно языку, так и теории и практике перевода. Есть направления бакалавриата «Теория и практика перевода (восточные языки)», «Гидовское дело и переводчество». В магистратуре – «Сравнительное языкознание и лингвистический перевод». Открыли и новую специальность – «Синхронный перевод».

Студенты филологического направления изучают два восточных языка и один европейский. Переводчики – один восточный и один европейский.

**– Какие предметы проходят будущие специалисты? Привлекают ли к обучению носителей языка?**

– Теорию и историю перевода, синхронный перевод, специфические направления – перевод художественной литературы, публицистических, научных, политических текстов, основы межкультурной коммуникации, социолингвистику, стилистику синхронного перевода и ораторское искусство, мастерство переводчика, семантографию, лингвокультурологию... Носителей языка привлекаем, но здесь обнаруживается проблема. Они часто владеют только родной речью. Готовых специалистов по синхронному переводу в комбинации «узбекский язык и какой-либо восточный» очень мало. Гораздо больше в комбинации «русский и восточный».

Студенты неоднократно слышат, что на избранном ими поприще не бывает скороспелых решений, чтобы, например, сел и без запинки выдал аналогичный текст на родном языке. Их ориентируют: трудиться придется много, иначе словарный запас не расширить, а наоборот, в нем возникнут досадные бреши. Кстати, совершенствование знаний должно идти параллельно. Самая неправильная точка зрения – «Свой язык я и так хорошо знаю».



**– Как повышаете эффективность практических занятий?**

– Включаем в процесс носителей в онлайн- и офлайн-режиме, используем разное оборудование для синхронного перевода, также привлекаем асов для участия в семинарах, мастер-классах, чтобы поделились опытом. Каждый год кафедра проводит республиканскую конференцию «Ўзбекистон таржимашунослари форуми» («Форум переводоведов Узбекистана»). При кафедре есть кружок «Бу кадимий санъат» («Это древнее искусство»). Дважды в месяц собираются одаренные студенты, идет обсуждение работ, приглашаются профессора, организуются дебаты. Молодежь знакомится с письменными и устными переводами мастеров своего дела, практиков, далеких от преподавательской деятельности. Также работает мастерская народного писателя Узбекистана и переводчика профессора нашей кафедры Мухаммада Али «Мангу битик».

**– Изучение иностранных языков находится в нашей стране на особом контроле. Что изменилось в подготовке специалистов за последние годы?**

– Наш университет участвует в международном инвестиционном проекте «Создание современных условий для подготовки синхронных переводчиков и повышение качества обучения на новом этапе международных отношений», который реализуется при участии Всемирного банка. В рамках проекта приобретено оборудование для учебных лабораторий (цифровые конференции и конгресс-системы). Для размещения оборудования в новом здании ТГУВ подготовлены две аудитории. Кроме того, вуз организует учебные курсы по шести восточным языкам (хинди, китайский, японский, арабский, турецкий, персидский) профессиональными переводчиками-синхронистами на контрактной основе. 72 часа проведено до пандемии, в октябре планируется возобновление занятий. В рамках проекта также закуплено программное и аппаратное обеспечение для двух языковых кабинетов по синхронному переводу.

Из-за пандемии приостановился обмен специалистами. Однако с улучшением технической базы приобрели новые навыки. Не сетуя на невозможность посещения той или иной страны, выстраиваем с носителями языка общение онлайн. Это помогает развивать язык, которым нужно заниматься ежедневно, иначе он забывается.

**– Где студенты проходят практику?**

– Практика подразделяется на профессиональную и педагогическую. Профессиональная начинается со второго курса. Переводчики направляются в разные государственные учреждения. Большинство – в редакции, где студенты занимаются переводами, в Союз писателей, Министерство иностранных дел. В МИД особенный отбор. Также наших ребят берут на международные конференции. Лучшие студенты будут прикреплены к наблюдателям во время выборов Президента.

**– Расскажите об участии учащейся молодежи в научно-исследовательской работе.**

– Кафедра выпускает сборник «Ёш таржимашунос» («Молодой переводовед»), где публикуются исследования магистрантов и бакалавров. Дважды в год проходят конференции. Декабрьская – «Ўзбекистон таржимашунослари форуми» – посвящена памяти основателя переводческой школы Узбекистана Гайбуллы Ассалома. В этой конференции студенты участвуют вместе с научными руководителями. Озвучивают проблемы, над которыми работают. Отбираются лучшие выступления и для публикации.

Также будущие специалисты подают заявки на образовательные гранты, выигрывая кратко- и долгосрочные поездки в страны изучаемого языка. Буквально в августе отправляли наших ребят на неделю стажироваться в Турцию. Магистранты пишут диссертационные работы по проблемам разных видов перевода, анализируя трудности соприкосновения языков и пути их преодоления, учитывая возникающие культурологические моменты или ситуации синхронного воспроизведения иностранного текста.

**– Некоторые сотрудники имеют богатый переводческий опыт, однако преподают другие предметы. Их потенциал не остается без внимания? Ведь живые примеры подчас гораздо действеннее страниц теории.**

– Это незаменимый пласт в образовательном процессе. Безусловно, такие сотрудники – активные участники мероприятий разного формата.

Хочется снова вернуться к когорте талантливых практиков, которые не занимаются преподавательской деятельностью. Здесь мы иногда сталкиваемся с проблемой отсутствия методического мастерства. Блестящий эксперт, признанный рядом авторов, держащий аудиторию зарисовками из собственного опыта, не может научить. Грамотный педагогический подход чрезвычайно важен. Однако два специалиста, дополняющие друг друга, на круглых столах и мастер-классах дают хорошие результаты.





Здесь уместно сказать о личности обучаемого. Если у него нет желания овладеть профессией, никто не поможет, какими бы методическими приемами ни пользовался лектор или преподаватель, ведущий практические занятия.




К сожалению, для многих молодых людей становится целью меньше работать, но больше зарабатывать. Руководствуясь подобной позицией, переводчиком не станешь. Кропотливый труд, требующий неоднократного возвращения к тексту, множества культурологических исследований, консультаций с учеными, не дает быстрого заработка и сиюминутной славы. Здесь не бывает с ходу написанного набело: слова иногда подбираются мучительно долго, в полученном тексте нет гармонии или в него вкрадываются чужеродные элементы, которые надо своевременно обнаружить и заменить верными. Опыт приходит со временем. С годами, в результате постоянной работы над собой письменные переводы получаются быстрее, стройнее, идентичнее первоисточнику. Помогают приобретенные навыки и терпение. Поэтому среди известных мастеров передачи художественных текстов в основном уже люди в возрасте, пережившие и до сих пор переживающие стадии профессионального взросления.

**– Есть ли у студентов возможность практиковаться с первого курса? Существуют ли вузовские газеты или журналы, отслеживающие рост авторов?**

– Такие возможности есть. Отдел по работе с одаренными студентами выпускает специальные сборники с классификацией по направлениям, устраивает конференции востоковедов. У кого желание «сделать» себя возникает на первом курсе, может попробовать свои силы. А о сборнике нашей кафедры «Ёш таржимашунос», ориентированном конкретно на переводчиков, я уже говорила.

**– Какие из языков традиционно сложны для переводов?**

– Каждый своеобразен и труден. Говорят, китайский очень сложен, арабский, другие, однако переводчик учится для того, чтобы достойно выполнять свою работу. Имея за плечами высшее образование, сделает письменный перевод. Опять же от степени подготовленности, широты лингвострановедческих знаний зависит качество работы с одним и тем же текстом у разных людей. Как бы то ни было, последовательный письменный перевод со всеми его подводными камнями легче устного синхронного.

Синхронисту требуется моментально реагировать, а как это сделаешь быстро, если для полного понимания текста ждешь глагола, который во многих восточных языках находится в конце предложения. Конечно, трудно переводить синхронно китайский и японский язык на узбекский. Хотя... легких путей у синхронистов нет в любом случае. Скажем, родственный турецкий. Вроде столько похожего и в лексике, и в синтаксисе, а без определенных навыков не обойтись. Везде свои нюансы.

**– Какие трудности встречаются при подготовке переводчиков и как они преодолеваются?**

– К сожалению, мы не можем отправить на стажировку за рубеж всех, а в идеале это одно из важных условий формирования высококвалифицированного специалиста. Стараемся сглаживать проблему большим объемом письменных переводов, знакомим с культурой и бытом народов на языковых занятиях с использованием аудио- и видеоматериалов.

Самое главное для специалиста – это среда, и для получения хорошего результата мы должны ее обеспечить.

**– Проводит ли университет мониторинг трудоустройства выпускников: все ли в дальнейшем работают по специальности или учеба нужна только для получения престижного диплома?**

– Да, такой мониторинг проводится. Все-таки чаще всего выпускники работают по специальности. Если даже не переводчиками, то менеджерами иностранных фирм, где необходимо знание неродного языка. Многие выбирают магистратуру, а в дальнейшем – науку. Лучших оставляем в университете для преподавания.



Расширение международных отношений, в частности с восточными странами, повлияло и на востребованность переводчиков. Нужны высококвалифицированные синхронисты для обслуживания встреч на высшем уровне, государственных визитов, международных форумов. Один минус: нужда в подобных переводах возникает в конкретных ситуациях. Как такому работнику обеспечивать семью? Многие находят постоянный заработок в педагогической сфере или в государственных учреждениях, где могут постоянно заниматься письменными переводами. В этом году у нас состоялся первый выпуск синхронистов. Работой все обеспечены.



**– Чтобы стать синхронным переводчиком на международных конференциях, встречах глав государств, достаточно бакалавриата и магистратуры или необходимо дополнительное обучение?**

– Такая потребность зависит от упорства, старания, самостоятельной работы обучаемого. Есть такие, которым достаточно бакалавриата, а потом развитие идет под знаком самосовершенствования. Это способность быть переводчиком, великий дар. Одного знания языка недостаточно. Задействованы многие компетенции, в том числе в плане этикета. Переводчик должен работать над собой непрерывно. Считаю, что нужна серьезная послевузовская подготовка. И обязательная стажировка в стране изучаемого языка. Специалист должен окунуться в среду, изучить ее, впитать особенности поведения. Ведь у каждого есть языковой барьер. Нашему менталитету он особенно свойствен: «А вдруг скажу неправильно?» Скованность снимается глубокими знаниями, погружением в народ, его культуру.

**– Обращаются ли к вам за помощью какие-либо государственные организации?**

– Обращаются. Администрация университета и наш международный отдел оперативно откликаются на подобные заявки.

**– Какое место при подготовке специалистов уделяется дальнейшему изучению родного языка?**

– У родного языка особая роль. Чрезвычайно важная. Им специалист должен владеть безупречно. В этом году в программу обучения первокурсников введен еще один интересный и необходимый предмет – узбекская литература.

**– А как вы пришли в профессию? Расскажите немного о себе.**

– В 2001 году поступила на направление «Язык хинди и литература Индии» филологического факультета ТашГИВ. Освоение предмета пошло довольно быстро. За год достигла уровня продолжающих студентов. На втором курсе сдала экзамен на стипендию консульства Индии по сотрудничеству и распространению индийской культуры и выиграла грант на стажировку в Делийском университете. Вернувшись, окончила бакалавриат. В то время было много разных выставок, индийских павильонов, визитов компаний. Практиковалась там как переводчица. Переводила фильмы, концерты, информацию для телепередач. Поработала в фирме. В магистратуру поступила на специальность «Теория и практика перевода». Написала диссертацию «Национальный колорит в романе Премчанда «Севги иноми». Его осуществил известный индолог Амир Файзулла. Был сопоставительный анализ, как передается индийский колорит на узбекском языке. Параллельно преподавала хинди в академическом лицее.

В 2011 году открылась кафедра теории и практики перевода. В самом начале нас было только четверо во главе с заведующим Хайруллой Хамидовым, а сейчас преподают 30 человек. Разрабатывали программы, составляли методические и учебные пособия. За десять лет кафедра расширилась. Теперь по трем направлениям бакалавриата и специальностям магистратуры обучаются около 400 человек, а в 2011-м было только 25.

Два года назад защитила докторскую диссертацию «Лексико-стилистические особенности узбекских переводов произведений Премчанда». Впервые при нашем университете была сделана научная работа по переводоведению с языка хинди.

Мой опыт составляют устные и письменные переводы, публикация учебных пособий по теории перевода, техническому и научному переводу и так далее.

**– Поздравляем вас с наступающим Днем учителей и наставников! Желаем здоровья, творческих успехов и вдохновения! И конечно, вдумчивых, заинтересованных студентов, обладающих переводческим даром!**

**Беседовала**
**Людмила ПОЛОНСКАЯ**

# КУЛЬТ ПРО СВЕТ

## Кино за пять дней

***Такая задача стоит перед участниками конкурса, организованного в рамках Ташкентского международного кинофестиваля «Жемчужина Шелкового пути».***



Молодые кинематографисты из 22 стран уже приступили к съемкам короткометражных фильмов об Узбекистане на тему «Великий шелковый путь». Начинающим режиссерам доступны 30 локаций в Каракалпакстане, Бухаре, Джизаке, Намангане, Самарканде, Хорезме и других регионах.

Картины будет оценивать жюри, в состав которого войдут известные мастера киноискусства, артисты, ученые-искусствоведы. Победителей конкурса наградят дипломами, статуэтками и денежными призами. За первое место – 15 тысяч долларов, за второе – 10 тысяч, за третье – 7 тысяч.

## Сохраняя самое ценное

***Фонд развития культуры и искусства намерен реконструировать здание дворца Романовых в Ташкенте.***



Здесь расположится филиал Государственного музея искусств, в него планируют вернуть западноевропейскую коллекцию живописи, изделия из фарфора и предметы интерьера. Парковая зона вокруг станет общественным пространством.

Проект реконструкции фонд начал разрабатывать в 2019 году. На данный момент готова предварительная концепция, которая включает план экспозиции, архитектурное и планировочное решение здания флигеля, проработку ландшафта с сохранением вековых деревьев, высадкой дополнительных зеленых насаждений.

К проекту реставрации дворца привлечены специалисты из немецкой компании Atelier Brückner, которая специализируется на разработке концепций и дизайна архитектурных пространств для сложных выставочных проектов и постоянных музейных экспозиций.

## Korea Week 2021

***В столице проходит Неделя корейской культуры и искусства.***



Цель – расширение культурных и духовных связей, укрепление сотрудничества между двумя странами.

В рамках Недели организованы конкурс по приготовлению национальных блюд, фотовыставка, рассказывающая о жизни корейцев в Узбекистане. Тысячами ритмичных ударов в барабаны в исполнении ансамблей «Корё» и «Асадаль» встречено наступление Чхусока – праздника урожая и благодарности земле за ее щедрость. Также в программе – викторина на знание корейского языка, туристическая фотовыставка, концерты традиционной музыки, кинофестиваль.

Korea Week 2021 продлится до 5 октября.

## Что будет в третьем томе?

***«Собрание Государственного Эрмитажа» пополнится серией книг о наследии Узбекистана.***



В трехтомник войдут экспонаты музейной коллекции, созданные в период узбекских ханств (с XVI до начала XX века). Издания готовятся авторами проекта «Культурное наследие Узбекистана».

Первые два тома уже опубликованы. На страницах третьей книги-альбома можно будет увидеть предметы оружия и конского снаряжения, ювелирные украшения, архитектурный декор, нумизматические памятники, изделия из драгоценных материалов, керамики, металла и текстиля.

МЫСЛИ ВСЛУХ

# Благодарю...

***Прошли первые недели учебного года. Для нас, вчерашних абитуриентов, это – новые учебные заведения, преподаватели и друзья. Для нас, будущих журналистов, – новый взгляд на мир. Подмечающий детали, видящий самое интересное, разыскивающий факты.***



К примеру, иное отношение к международным датам. Заглядывая во всемирный календарь разнообразных праздников, можно о многом узнать и о многом подумать. Скажем, зачем такое количество международных дней. Да чтобы привлечь внимание, что-то исправить, кому-то помочь, взять курс на глубокое изучение проблем.

Мне сегодня хочется порассуждать о красивой дате, которую впервые отметили в 1965 году, – Всемирном дне благодарности (World Gratitude Day). Это замечательная возможность выразить доброе отношение к окружающему миру.

Поэтому обратимся к главному слову «благодарю», подарим благо родным и близким, тем, кто делает нашу жизнь содержательной, красивой и комфортной, тем, кто помогает расти и совершенствоваться, кто печет нам хлеб и заботится о нашем здоровье...

Благодарю родную солнечную страну, которая торжественно вступила в 31-й год суверенитета. Родину-мать, заботящуюся о своих детях, верящую в молодежь и отводящую ей важную роль строителя Нового Узбекистана. Мне исполнилось 18 лет накануне Дня независимости. В этом году впервые воспользуюсь конституционным правом избирать. Благодарю Узбекистан, что и мой голос имеет значение. Благодарю за преобразования, которые выводят государство на новый уровень развития.

Поступая в вуз, получил возможность сдавать экзамены сразу в три высших образовательных учреждения. Благодарю судьбу, что выдержал испытания сразу во все. А выбрал Национальный университет Узбекистана и самое близкое мне направление – журналистику. Благодарен школе и наставникам за знания.

Если бы не мои самые близкие люди, смог бы я хорошо учиться, не попасть в дурную компанию?! Спасибо любимой бабуле, мамочке за воспитание и заботу! Спасибо братику Эсату, что установил для меня некую планку старшего брата, примера во всем, и не давал расхолаживаться своими отличными оценками.

Благодарю республиканские газеты «Yoshlar ovozi – Молодежь Узбекистана» и «Класс!», что направляли в первых корреспондентских опытах, редактировали и печатали мои заметки. На ознакомительных занятиях в университете представил хороший журналистский багаж.

Благодарю всех, с кем меня сталкивает жизнь. Врачей, которые недавно вылечили бабушку Раю в клинике, развернутой на территории Узэкспоцентра, преподавателей НУУ, сердечно встретивших новое пополнение, водителей маршруток, машинистов метрополитена, парикмахеров и дворников...

Благодарю тебя, жизнь, за то, что ты дана мне! С радостями и печалями, взлетами и разочарованиями, трудом и отдыхом. С птицами и деревьями, горами и реками, ухоженными махаллями и площадями... Со всем, из чего складывается мир. Благодарю!

**Дилявер АБЛЯКИМОВ**

# Слово за слово

## Здравствовать вам, здоровыми быть!





*Кому придет в голову прослеживать связи между здоровьем и деревом? Однако, с точки зрения историков языка, это именно так. Когда-то в слове «здоровый» была приставка с-. Здоровый, то есть с дерево, – такой же могучий и крепкий.*

*Наше привычное приветствие – пожелание здоровья. Повелительное наклонение от глагола «здравствовать» – «жить». Это же значение у латинского salve, которое говорили при встрече, и vale – при прощании. Помните, в «Евгении Онегине»: «В конце письма поставить vale». Русскому «да здравствует!» соответствует vivat – «пусть живет».*

## Легкий ветерок



*Кто не лакомился воздушным зефиром, наслаждаясь его изысканным вкусом?! В греческом языке зефир – «легкий ветерок». В этом же виде его перенял древнерусский язык.*

*Пористую, почти невесомую пастилу кондитеры назвали красивым словом, потому что она нежная, как легкий ветерок. Кстати, в XIX веке «ветер» или «французский ветер» было названием пирожного со взбитыми сливками. Так что ветер – слово сладостное.*

# SEPIGA 500 TA KITOB OLGAN kelinchak

## bu qizlar o'rtasida o'ziga xos an'ananing boshlanishimi?

O'RNAK OL!



***O'zbek to'ylari katta hasham bilan o'tkaziladi. To'y egalari qirq kecha-yu qirq kunduz qo'ni-qo'shni, yor-birodarga bazm qilib berishi qon-qonimizga singgan. O'tkazilyotgan to'y xabari yetti qishloq nariga borishi kerak. Orzu-havas deb ba'zida butun umr yiqqan-terganimizni bir kunda sovuramiz. Kelin-kuyovning uyida o'tkaziladigan udumlarni sanasa, adog'i yo'q. Ikki tomon bir-biriga qiladigan sarpo-surug'ni aytmasa ham bo'ladi. Qo'sha-qo'sha uy jihozlari-yu to'ydan so'ng foydalanilishi ham noma'lum bo'lgan tugun-tugun "yaltir-yulturlar"ni ko'rib, qo'shnilarning alami kelmasa, hisob emas. Dunyoning sarposini qilib, axiyri turmushi buzilganlarni ham, to'rt devor ichida baxtli yashayotganlarni ham ko'rdik. To'ydagi sarpolar baxtli bo'lish uchun muhimmi, degan savol tug'iladi.***



Yaqinda feysbuk ijtimoiy tarmog'ida Asaxiy.uzning "Asaxiybooks" loyihasi muharriri Dilbar Haydarova nikoh to'yida kelinlik sarposini kitoblar bilan to'ldirgani haqidagi xabarga ko'zim tushdi. Bu men uchun kutilmagan yangilik bo'ldi va Dilbar Haydarova bilan suhbatlashishni, to'y tafsilotlari, kitoblardan iborat sarpo haqida bilishni istadim.

"Yoshligimdan kitoblarga liq to'la javonlar ichida katta bo'ldim. Ota-onam serial, kino va ko'rsatuvlardan ko'ra, kitob mutolaasi bilan band edilar. Tabiiy ravishda biz ham ota-onamizga taqlidan ko'p kitob o'qiganmiz. Men ilk o'qigan kitob bolalarga atalgan hikoyalar to'plami edi. Asta-sekin jiddiy adabiyotlarga o'ta boshladim. Hayotim davomida kitob bilan hamnafas o'sdim", deydi qahramonimiz. Ushbu oilada qiz bolaning ilm olishi uchun alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, qahramonimiz va singlisining ta'limi uchun iddaolarsiz mablag' ajratilgan. Tibbiyot oliy o'quv yurtida tahsil oluvchi singil ham kitob mutolaasi va uni yig'ish bo'yicha opasidan qolishmaydi.

To'y arafasida bo'lajak kuyov hech narsa kerak emasligini, hamma mas'uliyatni o'z bo'yniga olishini aytgan. Kitobxon kelinimizning aytishicha, ikki yoshning tanishuviga ham kitob sababchi bo'lgan. O'z hayotida kitobning o'rni alohidaligini takidlab, "Qiz bolaga atir-upa, xastaga dori qanchalik zarur bo'lsa, menga kitoblar shunchalik zarur edi", deydi. Shu sababli ham yaxshi niyatda 400-500ga yaqin kitob va kitob javoni xarid qilishibdi. Sarpoga ko'rk bag'ishlagan va ko'pchilik havas qilgan narsa bu kitoblar va kitob javoni bo'lgani, shubhasiz.

"Eng qimmat chinni va jihozlar bir kuni eskiradi. Ammo menga bir umr hamroh bo'ladigan narsa bu kitoblarimdir. Kun kelib bolalarim-u nabiralarimga sarpom deb, hozir olgan buyumlarimni ko'rsata olmayman. Lekin javonim to'la kitoblarni bemalol ko'rsataman". To'ydan keyingi marosimlarda qaynona va qo'ni-qo'shnilar ham kelinga kitob sovg'a qilishibdi. Yangi xonadon ham kitoblarga to'laligi Dilbar Haydarovaning quvonchini yanada oshirdi.

Shu o'rinda kitoblardan iborat sarpoga qaynonaning munosabati qanday ekaniga qiziqdim:

— O'g'illarimning taqdiriga qanday qiz yozilgan ekan, deb titrab turardim. Uch nafar kelinim bor. Katta kelinlarimning ham kitoblari ko'p edi. Kenjatoyim – Sardorimga o'ziga mos Dilbari kelganini kelinimning sepini ko'rganimda angladim va qalbim taskin topdi. Javonda qolib ketadigan chiroyli kiyimlar, hashamdor idishlar, eng so'nggi urfdagi mebellar, ko'zni qamashtiruvchi zeb-u ziynatlar men uchun bir dona kitobning o'rnini bosa olmaydi. Kitob butun jamiyatni tarbiyalaydi. Unga ma'naviy ozuqa beradi. Bolalarim mendan uzoqda bo'lishsa ham, ularning to'g'ri yo'lda, shaxdam qadamlar bilan odimlashyotganini bilaman, — deydi Navoiy viloyati Karmana tumanidagi 25-maxsus ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'qituvchi-logopeti Gulnora opa Nurullayeva.

Ko'pgina yaqinlari sepli kelinga havas qilib, o'z sarpolarini kitob bilan to'ldirishmoqchi. Qiz-u ayollarimiz orasida o'ziga xos trend yuzaga kelib, o'zbek jamiyatida "Sarpongga chinni oldingmi?", "Qanday mebel qilding?" emas, "Sarpongga nechta kitob qo'yding?" degan savol paydo bo'lsa, ajab emas.

**Shahribonu RAHMATOVA**

# E'tiborsizlik jazolanadi

OGOHLIK



***Insonlar oqibati ayanchli tugashi mumkin bo'lgan holatlarga panja ortidan qarab, e'tiborsiz bo'lsa, yong'in va boshqa favqulodda holatlar kelib chiqadi.***

Ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish maqsadida Olmazor tumani favqulodda vaziyatlar bo'limi xodimlari aholi o'rtasida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib bormoqda. Joriy yilning o'tgan davrida tumandagi 58 ta mahalladagi aholi yashash xonadonlarida favqulodda holatlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalar, yong'inlar, is gazidan zaharlanish, botulizm kasalligining oldini olish, ochiq suv havzalarida cho'milmaslik borasida mahalla faollari hamda tegishli tashkilotlar mas'ul xodimlari bilan hamkorlikda uchrashuvlar va suhbatlar olib borildi.

Jumladan, Eski shahar, Hofiz Kuhakiy, Qo'shtut va Abu Bakir Shoshiy mahallasida profilaktik tadbirlarda aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tuman hokimligi, prokuraturasi hamda IIOFMB, gaz, elektr tarmoqlari korxonasi, mahalla idorasiga taqdimnoma va ma'lumotnomalar kiritilib, kamchiliklarni bartaraf qilishga erishildi.

Bundan keyingi faoliyatimizda ham favqulodda holatlar yuz bermasligi, uning barvaqt oldini olish borasida bir zum bo'lsa-da ishimizni susaytirmaymiz.

**Baxtiyor ISKANDAROV,**
**Olmazor tumani favqulodda vaziyatlar bo'limi mutaxassisi, kichik serjant**

MUTAXASSIS MINBARI

# Musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodikasi

## zamon talablariga asosan takomillashtirilishi lozim

Yosh avlodga har tomonlama puxta bilim berish, ularni Vatanimizning yetuk kishilari etib tarbiyalashda maktab muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 2-noyabr kuni mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan videoselektorda shunday degan edi: "O'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki mulohaza va fikrlashga chorlaydigan metodikani yaratish zarurdir".

Yangi O'zbekistonning ertangi kuni bo'lgan yosh avlodning har tomonlama yetuk va barkamol, estetik didli, madaniyatli insonlar bo'lib yetishishi uchun o'qituvchilar, shu jumladan, musiqa madaniyati fani o'qituvchisidan o'z kasbiy mahoratlarini oshirib borish, ilg'or pedagogik texnologiyalar mohiyatini anglash va ulardan o'z darslarida unumli foydalanish talab etiladi. Zamonaviy o'qituvchi – ilg'or pedagogik texnologiyalarni puxta egallashi, ularni tahlil qilishi va amaliyotga joriy eta olishi lozim.

Musiqa madaniyati darslari bolalar tafakkurini o'stiradi, kelajak sari yetaklaydi. Musiqa insonni g'aroyib kuy va ohanglar dunyosiga boshlaydi, his-tuyg'ularni noziklashtiradi, didini charxlaydi, go'zallikni sevishga o'rgatadi.

Umumta'lim maktablarida musiqani o'qitishdan asosiy maqsad – o'quvchilarga musiqa san'atini go'zallik qonunlari asosida o'rgatish va ularda musiqa madaniyatini tarkib toptirishdir.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, unga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurligi qayta-qayta ta'kidlanadi.

Mamlaktimizda ta'lim tizimini takomillashtirish, o'quvchilarning o'quv materialini idrok qilishi hamda musiqa vositasida, tarbiyalash borasida, musiqa o'qitish metodlari, dars tarkibi, musiqiy foaliyatni amalga oshirish yuzasidan o'quvchilarning imkoniyatlari, sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy ishlarni tashkil qilish va boshqa ilmiy-nazariy jihatlar yuzasidan ayrim ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan va bugungi kunda ham olib borilmoqda.

"Musiqa madaniyati" fani dasturida, o'quvchiga musiqa ta'limi berish bilan bir qatorda uning ijodkorlik qobiliyatini o'stirish, vokal-xor malakalarini rivojlantirish, musiqani idrok etish, musiqiy savodxonligi, ritmik jo'r bo'lish kabi mahoratlarini oshirish alohida uqtirilgan.

Ma'lumki, musiqa ta'limining poydevori boshlang'ich sinflarda quriladi. Unda musiqaga oid barcha bilimlar (xor bo'lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqa ijodkorligi, musiqaga mos harakatlarni bajarish) beriladi. Musiqa savodi mustaqil dars faoliyati sifatidagina amal qilinmay, balki boshqa faoliyatlar jarayonida musiqa asarlarini badiiy o'rganish va ijro etish usullarini savodxonlik asosida bajarish uchun qo'llaniladi. Bir so'z bilan aytganda, musiqiy savodxonlik darsning ta'limiy vazifasini bajaradi.

Biz ushbu ta'limiy vazifalarni inobatga olgan holda, ilmiy izlanishlarimiz natijasida musiqa savodxonligini o'rganish davrida metodik yordam sifatida "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa savodxonligi" nomli o'quv qo'llanmani ishlab chiqdik. Maqsadimiz boshlang'ich sinf o'quvchilari musiqa darslarida musiqa savodxonligidan alohida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishini ta'minlash hamda musiqa madaniyati darslaridagi ko'plab uchrayotgan xato-kamchiliklarni bartaraf etish. Ya'ni bugun:

▶ dars mobaynida oddiy nota daftariga behuda vaqt sarflash;

▶ dars mobaynida o'qituvchining musiqiy belgilarni barcha o'quvchilar nota daftarlariga to'liq yozib bera olmasligi;

▶ o'quvchilarning musiqiy belgilarni yozishidagi kamchiliklar;

▶ haftasiga bir soat o'tilgan mashg'ulotda yetarlicha nazariy bilimga erisha olmaslik;

▶ qoidalardagi kabi yoza olmaslik;

▶ yozish va yod olish davrida tez yoddan chiqib ketishi;

▶ berilgan qo'shiqlar va kuylarni mustaqil o'qiy olmaslik;

▶ uyga berilgan vazifani qoniqarli-qoniqarsiz bajarib kelish kabilar aniqlandi.

Biz ushbu o'quv qo'llanma boshlang'ich sinfda dars va darsdan tashqari daqiqalarda qo'shimcha manba sifatida yosh avlodga yaqindan yordam beradi deb hisoblaymiz.

### O'QUV QO'LLANMA 6 QISMGA BO'LINIB, ULAR QUYIDAGICHA TASNIFLANADI:

1. Musiqa savodxonligida o'quv qurollari bilan tanishish, chiziqlar, nota belgilari, musiqa kalitlari, tovush, tovush qatorlarining joylashuvi.
2. Skripka kalitida notalarning joylashuvi.
3. Bas kalitida notalarning joylashuvi.
4. Alteratsiya belgilari.
5. Pauzalar.
6. Musiqada dinamik belgilar.

Bu paragraflarda berilgan musiqa mashg'ulotlari nazariy bilimlari bilan birga, husnixat usullari, musiqiy boshqotirmalar, turli o'yinlar taqdim etilgan. Fanni nazariy o'rganishning amaliy usullari va vositalari ko'rsatilgan.

Musiqa madaniyati fanining interfaol metodlarda asosiy beshta chiziqdan to musiqiy dinamik belgilargacha husnixat usulida o'rgatilishi ilmiy izlanishimizning yangiligi hisoblanadi.

Masalan, bir soatlik dars mashg'ulotini ko'rib chiqamiz.

9-mashg'ulot

Mavzu: Notalarning bo'linishi, ularning cho'zimi hamda elementlarini o'rganish deb oladigan bo'lsak, bunda o'quvchilar

▶ mashg'ulot mazmunini, ya'ni, nota nima ekanligi, notalarning bo'linishi, ularning cho'zimi haqida ma'lumotga ega bo'ladi;

▶ turli rasmlar yordamida notalarning nomi bilan tanishadi (1-rasm);

▶ klavishda notalarning joylashuvini o'rganadi (2-rasm);

▶ Notalarning bo'linishini o'rganadi (3-rasm);

▶ Mavzuga mos qiziqarli boshqotirma va topshiriqlar beriladi (4-5-rasmlar);

▶ Butun, yarim, chorak va nimchorak notalarni berilgan nuqtachalar ustidan qalam yordamida yoziladi (o'quvchi notalarni husnixat usuli vasitasida o'rganadi);

▶ Notalarning bo'linishini she'riy tarzda o'rganiladi (7-rasm);

▶ Uyga vazifa (Yuqoridagi vazifalarga o'xshash qiziqarli boshqotirma va topshiriqlar beriladi), (8-rasm).

1-rasm




2-rasm




3-rasm



4-rasm







5-rasm

6-rasm




7-rasm



7-rasm



8-rasm




Ushbu o'quv qo'llanma yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqa ta'limining poydevori shakllantiriladi. Shuning uchun 1-sinfdan o'quvchilarni musiqaga qiziqtirish, musiqiy taassurotini tarkib toptirish va zaruriy musiqiy ko'nikma va malakasini hosil qilish asosiy vazifa etib belgilanadi.

**Dilshoda RAHMONOVA,**
**Termiz davlat universiteti san'atshunoslik fakulteti Musiqa ta'limi kafedrasi o'qituvchisi**

MUTOLAA

# Mashhur yozuvchilarning rafiqalari haqida eshitganmisiz?

***Mashhur yozuvchilarning hayotida oila, ayniqsa, umr yo'ldosh alohida o'ringa ega. Bu ayollarning ba'zilari ularning hayoti davomida turmush o'rtoqlarining shaxsiy hisobchilari, yordamchilari, stenograflari, kotiblari va hatto muharrirlari sifatida muhim rol o'ynagan.***



**Anna Grigorevna Dostoyevskaya**

Fyodor Dostoyevskiyning o'z ayoliga yozgan bir maktubi mazmuni quyidagicha edi:

"Farishtam Anna! Men oldingda cho'kkalayman, qo'llaringdan o'paman. Azizim, men seni o'n yil davomida yaxshi ko'rdim. Ba'zida janjallashgan, so'zlarimiz tamomila bir-biriga zid kelgan bo'lsa ham men seni to o'lim ayirmaguncha jonimdan ortiq sevdim".

Ularning taqdir yo'llari birlashganida Anna bor-yo'g'i 20, Fyodor Dostoyevskiy esa 40 yoshda bo'lgan. Bu sevgi ular birga ishlagan paytlarida vujudga kelgan. Dastlab, Anna yozuvchining stenografi bo'lib faoliyat yuritgan. Keyinchalik ular birga yashashganida Anna uy ishlaridan, oilaviy byudjetni hisoblab borishdan, bundan tashqari, yozuvchiga ijodiy ishlarida yordam berishdan charchamagan. Chunonchi, o'sha paytda ham turmush o'rtog'ining yozuvlarini tahrirlar, stenograf sifatida ishlar, kitoblarini nashr etar va sotardi. O'z o'rnida Dostoyevskiyning qimorni tashlashida ayolining ta'siri sezilarli darajada bo'lgan.



**Sofiya Andreyevna Tolstoya**

Ularning nikohdan keyingi hayoti taxminan yarim asr davom etdi. Bu vaqt mobaynida Sofiya Andreyevna turmush o'rtog'i Lev Tolstoy bilan birga bo'lgan — ya'ni Yasnaya Polyanadan tashqari chiqmagan. Sofiya butun hayoti davomida eriga mehr-muhabbat ko'rsatdi, ijodiy ishlarida ko'makchi bo'ldi, katta oilasiga g'amxo'rlik qildi. Ularning 13 nafar farzandi bor edi.

Sofiya Andreyevna o'z xotiralarida shunday yozadi:

"Men kun bo'yi bolalarning darslari, sog'lig'i, erimning kayfiyati, qarzlari, ko'chmas mulkini sotish va boshqa narsalar haqida o'ylardim. "Kreyser sonatasi"ning yangi nashri, o'n uchinchi jildning tahriri, Mishaning oqshom ko'ylagi, yotoqxonasidagi kamchiliklar, Andryushaning nimchalarini yuvish, sigaralar, ilhom, qo'lyozmalar, xullas... Bularning bari mening gardanimga tushgandi".

Lev Tolstoy umr yo'ldoshidan 16 yosh katta edi.

**Vera Yevseyevna Nabokova**

Vera Vladimir Nabokovning kotibi, muharriri, tarjimoni va maslahatchisi bo'lgan. Barchamizga ma'lumki, Vera "Lolita"ning qo'lyozmasini saqlab qolgan. Vera har doim turmush o'rtog'i bilan birga bo'lgan — hatto yozuvchi universitetda ma'ruza o'qiganida va imtihon topshirganida ham uni yolg'iz qoldirmagan. Ular haqida joylarda ko'plab gap-so'zlar yurardi. Hatto Nabokovning romanlarini yozuvchining o'zi emas, xotini yozgan degan mish-mishlar ham tarqalgan.

Nikohning dastlabki kunlarida yozuvchi ayoli uchun o'zi o'rgana olmagan va



hech qachon o'rgana olmasligini tan olgan narsalarning yarim jiddiy ro'yxatini tuzadi. Ro'yxat mashinani haydash, matn terish va o'quvchilar bilan muloqotni o'z ichiga olardi. Lekin har bir hazilda haqiqat bor. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, Vera ro'yxatda aytilgan barcha vazifalarni uddalay olgan.

Nabokovning aytishicha, Vera bo'lmaganida u ehtimol birorta roman yozolmasdi. Yozuvchi o'z maktublaridan birida rafiqasi haqida shunday yozadi: "Men sizni juda yaxshi ko'raman, Vera! Sizning husnixatingiz ohista qadam tashlashingizga, ovozingiz esa bir xush tongga o'xshaydi".



**Yelena Sergeyevna Bulgakova**

Bu Mixail Bulgakovning ham, Yelenaning ham hayotidagi uchinchi nikoh edi. Bulgakov xotinini juda yaxshi ko'rar va: "Men faqat bitta ayolni sevaman — Yelena Nurenberg", deya ta'kidlardi.

Yelena Bulgakovning rafiqasi bo'lishdan tashqari ilhom manbayi ham hisoblangan. Yozuvchi vafotidan so'ng Bulgakov arxivi ayolining sa'y-harakatlari natijasida saqlanib qolgan va keyinchalik butun dunyoga tanilgan. "Usta va Margarita" nashri Yelenaning fidoyiligi sabab nashr etilgan. Darvoqe, Margaritaning tasviri Yelenaning prototipi degan fikrlar ham yo'q emas.

**Vera Muromseva — Bunina**

Vera Ivan Bunin bilan ellik yil davomida birga yashagan. Vera yozuvchining sodiq, aqlli ayoli edi. U yillar davomida turmush o'rtog'ining romantikasi va o'yin-kulgilariga chidashi kerak bo'lgan. Chunki Buninning hayotida ko'plab ayollar bor edi. Biroq Vera hech qachon eri bilan munosabatlarini to'xtatmagan.

Yozuvchi Yanovskiy u haqida shunday deydi:

"Vera eri olis Sibirda, sovuq konlarda yohud Stokgolmdagi Monte-Karloda yashaganida ham o'zini u uchun qurbon qilgan muqaddas rus ayoli edi".



Vera iste'dodli tarjimon, shuningdek, bir qator memuarlar muallifi edi. Yozuvchi vafotidan so'ng turmush o'rtog'iga bag'ishlangan "Buninning hayoti" va "Xotira bilan suhbat" kabi memuar asarlar yaratgan.



**Nadejda Yakovlevna Mandelshtam**

Ayoli shoirni bir daqiqa ham yolg'iz qoldirmagan. Osip Mandelshtam vafotidan so'ng Nadejda Mandelshtam ko'p yillar davomida har kuni hibsga olinishidan qo'rqib yashaydi. U erining arxivini saqlashga harakat qiladi, lekin o'sha paytda bu xavfli bo'lgani uchun butunlay yodlab oladi.

Nadejda Yakovlevna adabiyot tarixida nafaqat Osip Mandelshtamning rafiqasi, balki iste'dodli memuar yozuvchi sifatida ham nom qoldirgan.



**Zinaida Nikolayevna Gippius**

Dmitriy Merejkovskiy va Zinaida Gippiy: XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi rus adabiyotini bu ajoyib juftliksiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ko'plab yozuvchi ayollardan farqli o'laroq, Gippiy turmush o'rtog'i kabi mashhur bo'lgan. Kasbi o'xshash va umumiy manfaatlarga ega bo'lgan er-xotindan biri (ayniqsa ayol) ko'pincha o'zini va iste'dodini sherigiga hayotda, taqdirda va muvaffaqiyatda qurbon qilgan bo'lsa-da, bu oila o'ziga xos qonunlari va hayotga qarashlari bilan boshqa oilalardan ajralib turardi.

**To'plovchi va tarjimon: Rahmat BOBOJON**

1-OKTABR – O‘QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI

## Ustozim



Yozishni bilmas edim,
Qo‘llarimdan tutdingiz.
O‘qishni o‘rgatdingiz,
Mehribonim ustozim.
Shu kundan boshlab bizni,
Farzandim deb bildingiz.
Maktab — ikkinchi uy-u,
Siz — onamiz bo‘ldingiz.
Tarbiya berib bizga,
To‘g‘ri yo‘l ko‘rsatdingiz.
Bilim eshiklarin ochgan,
Mehribonim ustozim.

**Durdona ZOYIROVA,**
**Sergeli tumanidagi**
**269-maktabning 7-sinf o‘quvchisi**

## Bebaho ustoz



Misli farishta,
Guldayin go‘zal.
Ikkinchi ona –
Bebaho ustoz.
U misli quyosh,
Sira yo‘q ko‘z yosh.
Biz uchun sirdosh –
Bebaho ustoz.
So‘zlari bolli,
Misli novvotli.
Ezgu niyatli –
Bebaho ustoz.
Qalbi quyoshdek,
Mehri daryodek.
Kiprigi durdek,
Bebaho ustoz.

**Muslima FOZILOVA,**
**Sergeli tumanidagi**
**269-maktabning 9-sinf o‘quvchisi**



TABIAT MANZARALARI



# Qo‘ytosh haqida rivoyat

***Qo‘ytosh bir-biriga tutash baland tog‘lari, muzdek shaffof buloq suvlari va bepoyon yaylovlari bilan o‘ziga rom etadi. Osmono‘par Qoraqush cho‘qqisi uzra parvoz qilayotgan burgutning viqori-yu, Xontog‘i qoyasidagi arxar va tog‘ echkilarining atrofga mag‘rur boqib turishini kuzatganda hayratingiz oshadi. Erta bahorda kaklik, sa’va va bulbullarning sarmast qiluvchi xonishi ko‘ngillarni yayratib yuboradi. Kiyiko‘t, andiz kabi dorivor giyohlarning xushbo‘y hidini aytmaysizmi?***

Agar tog‘ yonbag‘rlaridagi xarsangtoshlarga diqqat bilan razm solsangiz, go‘yo uylar, uning atrofida bir otar suruv yoyilib yurgandek tuyuladi. Qoyalari esa odam gavdasini eslatadi. Nigohingizda yana bir qancha shakllar gavdalanadi. Bu yerda umrguzaronlik qiluvchi keksalar xalq o‘rtasida bir qancha rivoyatlarning mavjudligini ta’kidlashadi.

Emishki, qadim zamonda bir jodugor qiz bo‘lib, u husn-u latofatda tengsiz va g‘oyat suluv bo‘lgan ekan. Lekin sehrgarligi bilan atrofdagi tirik mavjudodlarni bir zumda toshga aylantirib qo‘yishdek qobiliyatga ega ekan. Xohlasa, dov-daraxt, ekin-tikin va giyohlarni qavjiratib qo‘yar yoki bo‘lmasa, suv toshqinlarini vujudga keltirib, talafotlarni boshlab yuborarkan.

Kunlarning birida sehrgar qiz yaylovda qo‘y boqib yurgan cho‘pon yigitga duch kelibdi. Yigit qizga yoqib qolgani uchun qalbi uni sehrlashga yo‘l qo‘ymabdi va ular bir-birlari bilan uchrashib turadigan bo‘lishibdi. Lekin vaqt o‘tishi bilan yigitning ko‘ngli undan soviy boshlabdi. “Garchi go‘zal bo‘lsang-da, odamlarga bemehrsan, yovuzlikni kasb qilib olgansan. Hamma sendan nafratlanadi”, debdi yigit unga. Shunda qiz yig‘lab-yig‘lab jahl ustida cho‘ponni ham, yaylovda yurgan qo‘ylarini ham bir zumda toshga aylantirib qo‘yibdi. Bu haqda mahalliy shoirlardan Mahmud Shomirzayev shunday she’r bitgan:

***Nega qizning ko‘zlarida***
***qotgan yosh?***
***Xabar bergin o‘zing ey,***
***nurli quyosh.***
***Zarang tayoq ushlab***
***cho‘pon ham qotgan,***
***Qo‘ylar to‘dasi-ku***
***u kelayotgan.***

Shu-shu G‘allaorol tumani hududidagi bu joy “Qo‘ytosh” deb nomlangan emish. Ushbu rivoyatni tinglar ekansiz, beixtiyor cho‘pon yigitning e’tiqodi va mardligiga tahsinlar o‘qigingiz keladi.

Qo‘ytosh Nurota tog‘ tizmalarining davomi bo‘lib, paleozoy erasida vujudga kelgan. Chuqursoy, Tollisoy va Kattasoylar Qo‘ytosh tog‘ining relefini ancha parchalagan. Tog‘ yonbag‘rlarida salobatli slanets va qumtoshlar asrlar davomida o‘zining tuzilishini o‘zgartirib, odamlar ko‘z o‘ngida huddi qo‘y-qo‘zilar o‘tlab yurgandek manzara paydo bo‘lgan. Shu sababli xalq o‘rtasida bu joy Qo‘ytosh qo‘rg‘oni deb nomlangan.

Yana bir faraz bunday: tilshunos olimlarning fikricha “ko‘h” tojikcha so‘z bo‘lib “tog‘” ma’nosini anglatadi, ya’ni ko‘hi tosh “tog‘ toshi” demakdir. Asrlar o‘tishi bilan xalq o‘rtasida tildan tilga o‘tib, ushbu so‘z biroz o‘zgargan bo‘lishi ham mumkin. Shuning uchun “Ko‘hitosh”, “Qo‘yitosh” keyinchalik “Qo‘ytosh” qo‘rg‘oni deb nomlangani ehtimoldan uzoq emas.

Tog‘ etaklarida yong‘oq, pista, tog‘olcha, olma, do‘lana, bodom va na’matak o‘sadi. Yovvoyi cho‘chqa, bo‘ri, kiyik, quyon va jayra uchrab turadi. Buloq bo‘ylarini suvsarlar, sal pastroqni kakliklar makon tutishgan. Tog‘ yonbag‘rlari va qum-shag‘alli kengliklardagi pista daraxti tog‘li hududlar ob-havosiga moslashgan. Tog‘ pistasining shifobaxsh xususiyatlari ko‘p. Ular tog‘ oralig‘ida yashovchi aholining ham moddiy, ham ma’naviy boyligidir. Ulami asrab-avaylab kelgusi avlodlarga yetkazish, tushuntirish va targ‘ib qilish har birimizning sharafli burchimiz bo‘lmog‘i lozim.

**Fotima NAMOZOVA,**
**G‘allaorol tumanidagi**
**16-umumta’lim maktabi**
**o‘qituvchisi**

YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана

MUASSIS:
O‘ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHI

BOSH MUHARRIR:
Hamza ABDULLAYEV

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan.

MAS’UL KOTIB: Yelena KALININA
NAVBATCHI MUHARRIR: Iqbol PARDAYEVA
MUSAHHIHLAR: Shahribonu RAHMATOVA, Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

TAHRIRIYAT MANZILI:
100083, Toshkent, Matbuotchilar ko‘chasi, 32.

Telefonlar:
(71) 233-22-16.
(71) 236-79-95.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi.
Hajmi – 3 bosma taboq.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41.
Indekslar: 203, 3203
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma G-955
Adadi – 725
Bosishga topshirish vaqti – 21.00
Topshirildi – 20.00

1 2 3 4 5 6